



## IMPLIKATURA VA UNING PRAGMATIK TAHLILI

**Raimova Nodira Baxtiyorovna**

*English Teacher*

**Annotatsiya:** Maqolada implikatura tushunchasining pragmatik mohiyati va uning muloqot jarayonida yashirin ma'noni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Muallif implikaturani minimal talqin uchun zarur xulosalar majmui sifatida izohlaydi hamda uning shakllanishida lingvistik, tezaurusiy, situatsion-deiktik va pragmatik omillarning o'rnini ko'rsatadi. Graysning maxsus, umumlashgan va an'anaviy implikaturalari hamda Levinsonning umumiy ishlatilishga tayanuvchi talqini asosida sarlavha, badiiy va media diskursidagi implikativ mexanizmlar ochib beriladi. O'tkir Hoshimov, Sh. Xolmirzayev, A. Qahhor misollari, shuningdek, nemis matbuoti sarlavhalari orqali implikaturaning bilvosita axborot uzatish, reseptor fon bilimlarini faollashtirish va persuasiv ta'sirni kuchaytirish funksiyalari yoritiladi. Metafora, o'xshatish, shaxslash kabi obrazli vositalarning implikativ ma'no yaratishdagi samarasi ham asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** implikatura; pragmatika; Grays; Levinson; maxsus implikatura; umumlashgan implikatura; an'anaviy implikatura; kommunikativ implikatura; leksik-semantik implikatura; sarlavha semantikasi; subtekst; kontekst; fon bilim; media va reklama diskursi; metafora; o'xshatish; shaxslash (personifikatsiya).

Implikatura – bu bayonotdan chiqarilishi mumkin bo'lgan barcha xulosalar yig'indisi emas, balki ma'no kamchiliklarini bartaraf etish, xabarni minimal darajada to'liq anglash uchun zarur bo'lgan mantiqiy xulosalar majmuasidir. Ushbu xulosalar bir nechta omillar ta'sirida shakllanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) lingvistik xulosa – avvalgi matnning semantik asoslariga tayanadi;
- 2) tezaurus xulosasi – lisoniy birliklar orqali yaratilgan assotsiatsiyalar va real denotatsiyalar o'rtasidagi aloqani ifodalaydi;
- 3) situatsion-deiktik xulosa – nutqning vaziyatli holatiga bog'liq bo'lib, har qanday kommunikativ birlikning ma'nosi konkret holatga qarab belgilanadi;
- 4) pragmatik xulosa – muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy-rol xususiyatlariga tayanadi.

Bu turdagi xulosalar kommunikativ faoliyatda yashirin ma'no – implikaturani hosil qiladi.

M. Ahmad va M. Shazali (2010) olib borgan tadqiqotda ta'kidlanishicha, implikatura aloqa jarayonida so'zlovchi tomonidan bevosita aytilgan fikr bilan uning qasddan nazarda tutgan ma'nosi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etuvchi muhim pragmatik elementdir. Implikaturani tahlil qilish nutq tahlili nazariyalarida ham, xorijiy tillarni o'qitish metodikasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki u muloqot jarayonida aytilgan va idrok etilgan ma'nolar o'rtasidagi uzviylikni yoritadi.

An'anaviy grammatika asosan gapning tuzilishiga e'tibor qaratgan bo'lsa, implikatura butun kontekstni qamrab olib, so'zlovchining niyatini to'laqonli talqin etishga xizmat qiladi. U madaniyatlararo tafovutlarni bartaraf etish, media tilida



yashirin ma'nolarni yetkazish vositasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Pragmatik nuqtai nazardan implikatura so'zlovchi tomonidan so'zning bevosita ma'nosidan tashqariga chiqib, ohang, imo-ishora yoki kontekst orqali yetkaziladigan qo'shimcha ma'noni anglatadi.

Masalan, kimdir "Qandaysiz?" degan savolga "Yaxshiman" deb javob berganida, u ba'zan o'zini yaxshi his qilmayotganini ham nazarda tutishi mumkin. Shunday qilib, implikatura tilshunoslikda ham, pragmatikada ham mavjud bo'lgan hodisa bo'lsa-da, ularning tahlil usullari farq qiladi: tilshunoslikda asosiy e'tibor so'zlarning mantiqiy munosabatiga, pragmatikada esa qo'shimcha – yashirin ma'noga qaratiladi.

Sarlavha implikaturasi – bu muallif tomonidan nazarda tutilgan, ammo to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmagan ma'no bo'lib, tinglovchi tomonidan idrok jarayonida tiklanadi. Implikatura muloqotning barcha turlarida muhim kognitiv mexanizmni ishga soladi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Tasalli" hikoyasi sarlavhasi o'zida yupanch va ovutish ehtiyojini yashirin tarzda ifodalaydi. Hikoyadagi "Bo'ldi endi, bolam..." kabi so'zlar shu implikaturani ochib beradi.

Grays konsepsiyasiga ko'ra, implikaturalarning uch turi mavjud:

- suhbatning maxsus implikaturalari (kontekstga kuchli bog'liq);
- umumlashgan implikaturalar (mazmun jihatidan kengroq, kontekstdan mustaqilroq);
- an'anaviy implikaturalar (lug'aviy ma'noga yaqin, konnotativ komponent sifatida namoyon bo'ladi).

S.K. Levinsonning fikricha, "aytilgan ma'no nafaqat notiqning niyatiga, balki tilning odatiy ishlatilishiga asoslangan umumiy implikaturalarga tayanadi."

Misol tariqasida "Ba'zi talabalar ushbu fikrni qo'llab-quvvatlamodalar" sarlavhasini olaylik. Bunda "barcha talabalar emas" degan yashirin xulosa mavjud. Bu umumlashgan implikatura bo'lib, u gapning semantik va pragmatik darajasida shakllanadi.

Implikaturalar odatda ikki turga ajratiladi:

1. Oddiy (leksik-semantik) implikatura – so'zlarning ma'nosidan kelib chiqadi;
2. Kommunikativ implikatura – muloqot tamoyillarining buzilishi yoki og'ishi orqali yuzaga keladi.
  1. Hisoblab chiqarilishi mumkin, ya'ni u so'zlashuvning bevosita ma'nosi va hamkorlik tamoyilidan kelib chiqadi.
  2. Kontekst ta'sirida osonlikcha yo'qoladi, shu bois u semantik taxmindan farqlanadi.



3. U aytilgan ma'no bilan bevosita ajralmas – masalan, “Men olmalarni yoqtirmayman” o‘rniga “Men olmalarni yomon ko‘raman” deyilganda ma'no saqlanadi, shakl o‘zgaradi.

Implikatura o‘z mohiyatiga ko‘ra noan’anaviy bo‘lib, lingvistik shakllarning an’anaviy ma’nosiga kirmaydi. Agar u intuitiv ravishda tushnilsa-yu, mantiqan aniqlanmasa, u kommunikativ emas, oddiy implikatura hisoblanadi.

Badiiy matnlarda implikatura matn birliklari o‘rtasidagi yashirin semantik bog‘lanish orqali yuzaga chiqadi. Masalan, Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasida “ot” so‘zi inson egaligiga ishora qilib, uy hayvoni sifatidagi implikativ ma’noni ochib beradi. Abdulla Qahhorning “To‘yda aza” sarlavhasi esa “xursandchilik va fojea” o‘rtasidagi kontrastni implikativ tarzda ifodalaydi.

Nemis matbuotidagi tahliliy maqolalarda ham implikatura keng qo‘llanadi. Masalan, Frankfurter Allgemeine Zeitung nashrida “Die Sojabohne steht vor den Toren Wiens” sarlavhasi “Avstriya endilikda soya yetishtiruvchi mamlakatga aylangan” degan yashirin semantikani anglatadi. Yoki Süddeutsche Zeitungdagi “Handelskrieg zwischen USA und China bedroht deutsche Firmen” sarlavhasi orqali muallif Trampning bayonotini keltirib, uning mantiqsizligini ko‘rsatadi va o‘quvchini yashirin tahlilga undaydi.

Bunday implikaturalar:

- o‘quvchiga ma’lumotni bilvosita yetkazadi;
- yangi bilimlarni kiritadi va mustaqil tahlilga chorlaydi;
- manbani yashirish orqali muallifning mas’uliyatini kamaytiradi.

Implikatura yaratishda ko‘chma ma’noli vositalar – metafora, o‘xshatish, shaxslash, kinoya, ramz kabi usullar muhim rol o‘ynaydi.

– Metafora ikki narsa o‘rtasidagi yashirin taqqoslashni anglatadi: “Hope is the thing with feathers” (E. Dickinson) – umid qushga o‘xshatiladi, bu inson qalbidagi tabiiy kuchni ifodalaydi.

– O‘xshatish: “Life is like a box of chocolates” (W. Groom) – hayot kutilmagan holatlarga to‘la.

– Shaxslash: “April is the cruellest month” (T. S. Eliot) – aprel oyining “shafqatsiz”ligi hayotdagi yangilanish va o‘lim dialektikasini ifodalaydi.

Bu vositalar matnga emotsional chuqurlik, semantik qatlamlilik va assotsiativ kenglik baxsh etadi.

Gap ma’nosi faqat lingvistik birliklardan emas, balki ularni qabul qiluvchi shaxsning fon bilimlari, tajribasi va madaniy kompetensiyasiga ham tayanadi. Shuning uchun implikatura, subtekst, taxmin va konkret-kontekstual ma’no kabi tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq.



Masalan, “Sovuq kunlarda sovuq mijozlilarga tavsiya” sarlavhasi sintaktik jihatdan to‘g‘ri ko‘rinsa-da, mantiqan aniqlik yetishmaydi. “Sovuq mijozli” iborasi “beparvo, qiziqishsiz mijoz” ma’nosini beradi, ammo matn mazmuni bilan to‘liq uyg‘un emas. Bu sarlavha “so‘z o‘yini”ga asoslangan bo‘lib, lekin semantik moslikni buzadi.

Implikatura matn semantikasida yashirin ma’noni shakllantiruvchi, kontekst va pragmatik omillar bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. U so‘zlovchining niyatini, tinglovchining fon bilimini, madaniy kontekstni hamda kommunikativ vaziyatni o‘z ichiga olgan murakkab semantik-pragmatik tizimni tashkil etadi. Shu boisdan ham implikatura tahlili tilshunoslikda, adabiyotshunoslikda va jurnalistik tahlilda inson tafakkuri va muloqot mexanizmini chuqurroq anglash imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Чудинов, А. П. Метафорическая мозаика в современной политической коммуникации / А. П. Чудинов. - Екатеринбург, 2003. - 250 с.
2. Швейцер, А. Д. Перевод и лингвистика / А. Д. Швейцер. - М., 1973. - 280 с.
3. Азнаурова, Э.С. Прагматика художественного слова Текст. / Э.С. Азнаурова. Ташкент: Фан, 1988. - 121 с.
4. Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря Текст. // Прагматика и проблемы интенциональности. М.: Ин-т языкознания АН СССР, 1988. - С. 7-44.